

VIII Века. Алма-Ата, 1971.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи 2017 йил, 8-феврал).

8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисидаги (Халқ сўзи 2017 йил, 21-апрел).

10. XIII-XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили. Морфология. –Т., 1986.

11. XV-XIX асрлар ўзбек тили морфологияси. – Т., 1990.

12. Фазылов Э. Будапештская рукопись «Гуль и Навруз» Лютфи.-Т., 2006.

Mazkur o'quv dastur M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining filologiya ta'lim yo'nalishi uchun “Современный русский язык Грамматика и текст” fanidan tuzilgan o'quv dastur (<https://msu.uz/articles/Filfak-Bak-Rabochiye-programmy-distiplin>) asosida takomillashtirilib, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

**Fan/modul uchun mas'ul:**

A.I.Primov - UrDU, “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası professori, f.f.d.

**Taqrizchilar:**

Sh.Norbayeva - UrDU, “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası professori, f.f.d.

B.Qilichev - BuxDU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası professori, f.f.d.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI**  
**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.

S.U.Xodjaniyazov

2025-yil 28 avgust

**MATN TILSHUNOSLIGI**

fanining

**O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 200 000 – San’at va gumanitar fanlar  
**Ta’lim sohasi:** 230 000 - Tillar  
**Mutaxassislik:** 70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili)

Urganch – 2025

Mazkur o'quv dastur Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti kengashining 2025-yil "28" avgust dagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor S.U.Xodjaniazov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i G.R.Matlatipov

Mazkur o'quv dastur Filologiya va san'ati fakulteti Kengashining 2025-yil "28" avgust dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (1-sonli bayonnomasi).

Filologiya va san'at fakulteti dekani D.Q.G'ayipov

Mazkur o'quv dastur O'zbek tilshunosligi kafedrasining 2025-yil "27" avgust dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (1-sonli bayonnomasi).

O'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri A.I.Primov

Tuzuvchi A.I.Primov

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ESTS - KREDITLAR
MT1206 ✓	2025-2026 ✓	II ✓	6 ✓
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari
Majburiy ✓	O'zbek		4 ✓
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
MATN TILSHUNOSLIGI ✓	1-kurs 2-semestr Jami: 60 ✓ Ma'ruza-30 ✓ Seminar-30 ✓	120 ✓	180 ✓

### I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak o'qituvchi va tilshunos olimlarga matn lingvistikasi fanining ilmiy-nazariy masalalari bo'yicha atroflicha bilim berish bilan birga ularning kelajakdagi ish faoliyatlarida amaliy ahamiyat kasb etuvchi lingvistik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – matn lingvistikasining ilmiy-nazariy masalalari, matn birliklari, matn tiplari, matnni bog'lovchi vositalar, matnning lingvistik tahlili, matnning kommunikativ-pragmatik mazmuni, matnning antroposentrik tahlili bo'yicha bilimlarga o'rgatishdan iborat. Ushbu fan magistrnlarni nazariy jihatdan yetuk mutaxassis bo'lislari uchun xizmat qiladi.

### II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### 1-mavzu. Kirish. Matn lingvistikasining fan sifatida shakllanishi

Matn tilshunosligi fanining yuzaga kelishi. Matn muammosi. Matn va uning maqomini belgilash. Matn eng asosiy kommunikativ birlik sifatida. Matnning yondosh hodisalarga munosabati. Matn alohida tadqiq birligi sifatida. Fonema-leksema-morfema-gap-matn iyerarxiyasi haqida. Matnning lingvistik birlik sifatida tildagi sistemaviy qonuniyatlardan chetda bo'la olmasligi. Til va nulq dioxotomiyasida matn. Matnga sof nutqiy birlik sifatida yondashish. Matn nafaqat nutq birligi, balki til birligi ham ekanligi. Bunday farazning falsafiy-mctodologik asoslari. Fanning o'rganish predmeti, maqsad va vazifalari.

#### 2-mavzu. Jahon tilshunosligida matn kategoriyasining o'rganilishi

Jahon tilshunosligida matn kategoriyasining o'rganilishi. Chex tilshunosligida matn lingvistikasi muammolari. Rus tilshunosligida matn lingvistikasi fanining paydo bo'lishi. I.R.Galperin, K.Kojevnikova, Y.A.Referovskaya, G.Y.Solganik, V.G.Gak, M.V.Lyapon, O.I.Moskalskaya, A.A.Metsler, O.L.Kamenskaya va boshqalarning tadqiqotlari.

#### 3-mavzu. O'zbek tilshunosligida matn tadqiqi. Matnning lingvistik tavsifi

O'zbek tilshunosligiga matn nazariyasining olib kirilishi. N.M.Turniyozov, A.Mamajonov, E.Qilichevlarning bu boradagi qarashlari. M.Hakimov, M.Yo'ldoshev,

S.Boymirzayev, D.Xudoyberganovlarning matn muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlari. Til sistemasida matnning tutgan o'rni. Matnning ta'rifi masalasi. Jahon tilshunosligidagi matnga berilgan ta'riflar tahlili. O'zbek tilshunosligidagi matnga berilgan ta'riflar tahlili. Matnning yozma shakli. Matnning og'zaki shakli.

#### **4-mavzu. Matnning tarkibiy qismlari. Matnning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalar**

Gap, qo'shma gap, murakkab tuzilmali gaplar, supersintaktik birliklar, period, abzas tushunchalari. Ularning o'zaro munosabati. So'z, gap va matn. Matn birliklarining semantik-grammatik jihatlarini. Matn birliklarini kengaytirish: kirish so'zlar, kirish gaplar, ajratilgan bo'laklar, uyushiq bo'laklar, undalmalar, takrorlardan foydalanish. Ularning matndagi o'rni. Matn tarkibidagi birliklarning bir-biriga munosabati. Ohang. Bog'lovchisiz gaplarda, uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, undalmalarda ohangning o'rni; teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar, yuklamalar, nisbiy so'zlar, fe'l shakllari; makon va zamon ifodalovchi so'zlar, sanalar, joy nomlari, alohida yirik shaxslar, mamlakatlar; atoqli otlar, okean, dengiz, ko'l, daryo, tog' koyi boshqa yirik inshootlar, ayrim olmoshlar, rasmiy hujjatlar va shaxslar, shuningdek, turli boshqa vositalar: kasb, amal, katta, olamshumul voqealar.

#### **5-mavzu. Matn birliklarining o'zaro munosabatlari**

Ichki sintagmatik munosabatlar: matn birliklarining semantik-grammatik munosabati; tashqi sintagmatik munosabatlar: matn birliklarining boshqa birliklar bilan munosabati. Semantik-mantiqiy paradigmatic munosabat; grammatik paradigma masalasi. Matnda mantiqiy izchillik, uning saqlanishi, buzilishi, ataylab o'zgartilishi. Funktsional paradigmatic munosabat. Ularning ifodalanishi; matnda modallikning ifodalanishi. Paradigmatic va sintagmatik munosabatlarda estetik qarashlarning ifodalanishi.

#### **6-mavzu. Matn qismlarining vertikal munosabatlari**

Matnda gorizontal va vertikal munosabatlar. Vertikal munosabatning o'ziga xosligi. Abzas, takror, paranteza, deysis.

#### **7-mavzu. Matnning kategorial belgilari**

Matn ikki tomonlama: statik va dinamik tabiatga ega ekanligi. S.Todorov tomonidan matnning 3 kategorial belgisi ajratilganligi. Matnga xos kategorial belgilar.

#### **8-mavzu. Matn tipologiyasi**

Matn tiplari. Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari. Maksimal matn. Minimal matn. Makromatn. Mikromatn.

#### **9-mavzu. Matn va uslub. Rasmiy va ilmiy matn va uning lingvistik tahlili**

Matnning uslubiy xoslanishi. Matnning funktsional tasnifi masalasi. Jonli so'zlashuv uslubiga munosabat. Jonli so'zlashuv va adabiy til "zidligi", aloqasi. Adabiy nutq uslublari va matn. Ilmiy uslub. Ilmiy matn, unga qo'yiladigan talablar, o'ziga xos xususiyatlari. Ilmiy ma'ruzalar matni tahlili. Dissertatsiya va ilmiy

maqolalar matni tahlili. Ilmiy matnlar tuzish ko'nikmasini shakllantirish.

#### **10-mavzu. Publitsistik va badiiy matn va uning lingvistik tahlili**

Publitsistik matn. Uning zamon bilan bog'liqligi, hozirjavobligi, makon bilan aloqadorligi, o'ziga xos boshqa jihatlarini. Publitsistik matnlar tuzish ko'nikmasini shakllantirish. Badiiy matn ko'rinishlari: a) nasriy matn, uning o'ziga xos xususiyatlari, ichki bo'linishlari, ko'rinishlari; b) poetik matn, uning so'z qo'llash san'ati namunasi ekanligi, ichki bo'linishlari, o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy matnda tilning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish, ularning o'rni. Badiiy matnda individual so'z qo'llash.

O'zbek tilining badiiy tasvir vositalari: troplar (ko'chim): metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabilar; sintaktik figuralar: takror, ellipsis, inversiya, gradatsiya, ko'p bog'lovchilik, bog'lovchisizlik, uyushiqlik kabilar. Badiiy tasvir vositalaridan foydalanishda me'yori. Muallifning tilga hurmati, tilni, uning birliklari imkoniyatlarini bilishi; shevalarga munosabat; badiiy matn tili ustida ishlash - matn tahriri masalasi.

Shakl va mazmun birligi tamoyili; makon va zamon birligi tamoyili; xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyili.

#### **11-mavzu: Matnning fonosemantik tahlili. Matn va sinesteziya**

Fonosemantika. Fonosemantikaga oid ilmiy izlanishlar tahlili. Matnda unli tovushlarning fonosemantik qo'llanilishi, undosh tovushlarning fonosemantik qo'llanilishi. Sinesteziya. Sinestezik metafora va tilda sinesteziyalarning aks etishi. Matnda sinestetik metoforalarning qo'llanilishi. Matnda belgi bilan bog'liq sinestezik metoforalarning aks etishi. Harakat ifodalovchi sinestezik metoforalarning aks etishi.

#### **12-mavzu: Matnning antroposentrik tadqiqi.**

##### **Lingvopersonologiya - matni o'rganuvchi soha sifatida**

Tilshunoslikda antroposentrik yondashuv. Nutq faoliyatida shaxs omili. Lisoniy shaxs. Matnning pragmatik tahlili. Matnning sotsiolingvistik tahlili. Matnning lingvokulturologik tahlili. Matnning psixolingvistik tahlili. Lingvopersonologiya. Lingvopersonologiyaning maqad va vazifalari. Matn orqali lisoniy shaxsni aniqlash. Shaxsning lisoniy portreti. Bu boradagi ilmiy izlanishlar tahlili.

#### **13-mavzu: Matnning kognitiv-diskursiv tavsifiy xususiyatlari**

Tilshunoslikda kognitiv tilshunoslikning yuzaga kelishi. Matnning kognitiv-diskursiv tahlili. Tushuncha va konsept, uning matnda namoyon bo'lishi. Matnning kognitiv-diskursiv tahliliga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar. Matnning kognitiv-diskursiv tavsifiy xususiyatlari.

#### **14-mavzu: Matnning kommunikativ-pragmatik mazmuni**

Matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi lingvistik kategoriyalar. Matn mazmunida temporallik semantikasi. Matn modalligi. O'zbek tilshunosligida matnning pragmatik tahliliga bag'ishlangan tadqiqot ishlari.

#### **15-mavzu: Matnning psixolingvistik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik, genderolingvistik talqini**

Matnning psixolingvistik tahlili. Bu borada jahon va o'zbek tilshunosligida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari. Temperamentning matn tuzishga ta'siri masalasi. Lingvomadaniy birliklarning matn yaratishdagi o'rni. Matnda mental xususiyatlarning

aks etishi. Matnning lingvokulturologik tahlili.

Matnni sotsiolingvistik tahlil qilishning maqsad va vazifalari. Matnni sotsiolingvistik tahlil qilish metodlari. Matnni sotsiolingvistik tahlil qilishdagi lingvistik va ekstrolingvistik kategoriyalarni belgilash.

Jahon va o'zbek tilshunosligida genderolingvistikaning yuzaga kelishi. Bu borada olib borilayotgan tadqiqot ishlari. Ayollar nutqining o'ziga xos jihatlari. Erkaklar nutqi. Matnning genderolingvistik tahlili.

### III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Dunyo tilshunosligida matnning o'rganilishiga doir masalalarni tahlil qilish. O'zbek tilshunosligida matn tadqiqiga doir ishlar tahlili. Matnning til sistemasidagi o'rnini tahlil qilish.
2. Matnning tarkibiy qismlarini o'rganish. Matnning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalar.
3. Matnning gorizontal bog'lanishlari. Matnning vertikal bog'lanishlari.
4. Matn birliklariaro munosabatlar tahlili. Matn kategoriyalari tahlili.
5. Matn tasnifi.
6. Matn va uslubiyat. Matn va nutq madaniyati.
7. Rasmiy matn tahlili va rasmiy matn tayyorlash. Ilmiy matn tahlili va imiy matn tayyorlash.
8. Publitsistik matn tahlili va publistitik matn tayyorlash. Badiiy matn tahlili.
9. Intertekstuallik mavjud matnlar tahlili. Matndagi tovushlarning inson ruhiyatiga ta'siri masalasi.
10. Oksyumoronli matnlar tahlili. Frazemali matnlar tahlili.
11. Sinesteziyaning matnda aks etishi. Abstrakt so'zlar mavjud matnlar tahlili
12. Matnning antroposentrik tahlili.
13. Matnning konseptual tahlili. Matnning pragmatik tahlili
14. Matnning psixolingvistik tahlili. Matnning sotsiolingvistik tahlili.
15. Lingvomadaniy birliklarning matn yaratishdagi o'rnini. Matnning jinsga oid tahlili.

Seminar mashg'ulotlar tashkillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va amaliy masalalarni kompyuter bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bitta professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur.

### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tilshunoslikda kommunikativ tilshunoslikning yuzaga kelishi
2. Kommunikativ tilshunoslik bilan bog'liq masalalar
3. Kommunikativ tilshunoslikning jahon tilshunosligida o'rganilishi
4. Kommunikativ tilshunoslikning o'zbek jahon tilshunosligida o'rganilishi
5. Tilshunoslikda kommunikativ tilshunoslik bilan bog'liq muammolar
6. Kommunikativ tilshunoslikga oid amaliy ishlanmalar
7. Kommunikativ tilshunoslik bo'yicha topshiriq (savollar, test)
8. Tilshunoslikda matn lingvistikasi fanining yuzaga kelishi
9. Matn lingvistikasiga oid amaliy ishlanmalar

10. Kommunikativ va kognitiv bilish.

11. Kayfiyatning matnlarni tushunishga ta'siri.

12. Matnning kognitiv xaritasi.

13. Matn lingvistikasi bo'yicha topshiriq (savollar, test)

14. Tilshunoslikda matn ta'rifi va u bilan bog'liq nazariy masalalar

### VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

- o'zbek adabiy tili me'yorlari, nutq uslublari bo'yicha tasavvurga ega bo'lishi;
- kasbiy terminologiyani og'zaki va yozma nutqning turli xususiyatlarini bilish va bu bilimdan foydalana olish;
- matn tuzish, uni tarjima, tahlil va tahrir qilish, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- individual loyihalar;
- jamo'a bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar;
- taqdimot qilish;
- interfaol va innovatsion metodlar, Smart texnologiyalar, grafik organayzer va strategiyalar;
- o'yinli texnologiyalar, diabet, disputlar;
- auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlar (noan'anaviy dars shakllari: sayohat-dars, muzey-dars, teatr-dars);
- audio-vizual materiallar bilan ishlash;
- tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari;
- bilim, ko'nikmalarni amalda qo'llashni nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullari.

### VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid o'rganilgan nazariy bilimlarni amalda qo'llay bilish; o'rganilgan nutqiy mavzular doirasida ijodiy va tanqidiy fikrlar olish; turli mavzularda yozma va og'zaki nutq tuza olish, matn ustida ishlay olish; sohaga oid terminlarni erkin qo'llay bilish; o'zbek tilining o'ziga xos jihatlari, boshqa tillar bilan o'xshash va farqli tomonlari haqida mustaqilo mushohada yurita olish; davlat tilida ish yuritish mohiyatini tushunish, o'rganilgan hujjatlarni to'g'ri yoza bilish; joriy, oraliq nazorat shakllari bo'yicha, mustaqil ta'lim bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.

### IX. Asosiy adabiyotlar

1. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. –T.: O'qituvchi, 2008.
2. Ashirboev S., Azimov I., Rahmatov M., G'oziev A. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi. – T.: Ijod, 2006.
3. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
4. Абдрахмонов Ф., Рустамов А. Кадимги туркий тил. –Т.: Ўқитувчи, 1982.
5. Абдушукуров Б. Қисаси Рабғузий лексикаси. –Т.: Академия, 2008.
6. Айдаров Г. Язык орхонских памятников древнетюркской письменности